

BIOLOGIYA FANIDA PEDGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

Tursunova Dilrabo Xamidovna

Jizzax viloyati Zarbdor tumani

3-sonli umumiy o'rta maktab biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Biologiya tabiat bilan uzviy bog'liq bo'lga fandır. Bu fanni o'rganishda ko'proq ko'rgazmali materiallardan foydalangan maqul. Maqolamda biologiya fanida pedagogik metodlardan foydalanish to'g'risida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metod, ta'lim-tarbiya, innavatsion metod, pedagogik metod

Kirish: Malumki bugungi kunda darslarda innavatsion metodlardan foydalanish samarali usul hisoblanmoqda. Bunda interfaol o'yinlarning o'ziga yarasha o'rni bor. Shuni inobatga olib, Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda desak yanglishmaymiz.[1]

Asosiy qism: Eng avvalo, interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam berishini anglashimiz lozim. Demakki, Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Quyida eng

ilg'or pedagogik interfaol usullardan namuna keltirib tahlil qilar ekanmiz, bu usullarning amaliy ahamiyati, foydasi to'xtalib o'tmoqchimiz.[1]


Baliq skeleti metodi. Bu metod muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi.

muammo

muammo

muammo

muammo



hal qilish hal qilish hal qilish hal qilish

Strategiya: Bir varaq oq qog'ozda (vatman yoki A-3 varag'i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg'alari). Yuqoridagi «suyagiga» muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo'llari, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi. To'ldirilgan sxemaning taqdimoti. Foydalanish doiralari Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta'lim berish uslubidan foydalanganda. Afzalliklari Ushbu sxema muammolarning o'zaro bog'liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi. Qiyinchiliklar Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.[1] Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», «Atamalar varag'i», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Biologiya kursi mazmunidagi muammoli masalalami o'qitishda «Keys»dan foydalanish yuqori samara beradi. «Keys» — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, jarayon yoki vaziyat degan ma'noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o'qitishda foydalanilgan bo'lib, hozirgi paytda o'qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun

o'quv munozaralari tashkil etiladi. Biologiyani o'qitishda dastur mazmunidagi evolutsion tushunchalar yetakchilik qilgan, shuningdek, munozarali «o'simliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi», «hayvonot olamining paydo bo'lishi va rivojlanishi» kabi mavzulami o'qitishda foydalanish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o'qituvchi: • dastur mazmunidagi muammoli mavzulami aniqlashi, shu mavzularni o'qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi; • dars davomida muammoli savol-topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko'ra yakka tartibda yoki o'quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlami tashkil etilishini aniqlashi;[2]

Xulosa: Xulosa qili aytganda biologiyada lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan va metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi. Bunday metodlar orqali o'quvchining diqqatini nafaqat mavzuga qaratibgina qolmay uning darsga bo'lgan qiziqishini ham oshirishga yordam beradi. Ananaviy darslardagi faqat mavzu va vazifalarni tekshirish bugungi kunda zerikarli va u qadar yuqori natija bermaydi. Shunday ekan yuqoridagi metodlar ancha samarali.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/biologiya-fanini-o-qitishda-interfaol-usullarni-qo-llash/viewer>
2. <https://multiurok.ru/files/biologiya-fanini-o-qitishda-innovatsion-metodlarda.html>